

**TA'LIM JARAYONIDA AUTIZM SPEKTRI BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARDA
SENSOR INTEGRATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING KORREKSION-
RIVOJLANTIRUVCHI AHAMIYATI**

*Òzbekiston milliy pedagogika universiteti
Pedagogika, psixologiya va
inkluziv ta'lim fakulteti
p.n.f.professor D.A.Nurkeldiyeva
Òzbekiston milliy pedagogika universiteti
Pedagogika, psixologiya va inkluziv ta'lim
fakulteti Oligofrenopedagogika yo'nalishi
2 kurs magistri Qòchqarova Nodira*

Kirish

Hozirgi kunda autizm spektri buzilishlari (ASB) butun dunyoda dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ASB bilan tug'ilgan yoki rivojlanish jarayonida ushbu buzilish aniqlangan bolalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Shu sababli, ularning ta'lim jarayoniga moslashuvi, ijtimoiylashuvi hamda psixik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy maxsus pedagogika va inkluziv ta'lim tizimida sensor integratsiya metodlarini qo'llash ASB bo'lgan bolalarning rivojlanishida samarali yondashuv sifatida qaralmoqda. Shu bois mazkur tadqiqotda ta'lim jarayoniga sensor integratsiya mashg'ulotlarini kiritish orqali bolalarning sezgi tizimini rivojlantirish va ularning umumiy o'quv faoliyatini yaxshilash masalalari o'rganildi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm spektri buzilishlari (ASB) bo'lgan bolalarning ta'lim jarayonida sensor integratsiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Natijalarga ko'ra, sensor integratsiya mashg'ulotlarini ta'lim jarayoniga kiritish bolalarning harakat koordinatsiyasi, diqqat, motorika va ijtimoiylashuv darajasini sezilarli darajada yaxshilagan. Shuningdek, bolalarning emotsional holatida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Коррекционно-развивающее значение сенсорной интеграции у детей с расстройствами аутистического спектра в образовательном процессе

Аннотации: В данной статье рассматриваются вопросы развития сенсорной интеграции у детей с расстройствами аутистического спектра (РАС) в образовательном процессе. В ходе исследования были проведены опытно-экспериментальные работы с участием учащихся начальных классов. Результаты показали, что включение сенсорных упражнений в образовательный процесс способствует улучшению координации движений, внимания, моторики и уровня социализации детей. Также отмечены положительные изменения в эмоциональном состоянии. На основе результатов разработаны практические рекомендации.

The Corrective and Developmental Importance of Sensory Integration for Children with Autism Spectrum Disorders in the Educational Process

Annotatsion: This article examines the impact of sensory integration therapy on the development of social skills in children with autism spectrum disorder. Research findings indicate that the therapy significantly improves eye contact, emotional regulation, communication responses, and joint play behavior. SIT is recommended as an effective intervention to support social adaptation in children with ASD.

Ta'limiy eksperimentning maqsadi — Sharxlovchi eksperimentning natijalariga ko'ra, biz autizm spektori buzilishlari bo'lgan bolalarda turli darajada sensor buzilishlar bo'lishini aniqladik. Shu munosabat bilan, magistrlik dissertatsiyasi doirasida autizm spektori buzilishi bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarning sensor buzilishlarini korreksiyalovchi ish dasturi ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi. Dasturning maqsadi: autizm spektori buzilishi bo'lgan o'quvchilar sensor buzilishlarini rivojlantirish. Sezgi integratsiyasi bo'yicha mashg'ulotlarni ta'lim jarayoniga kiritish, bolalarning orientatsion faoliyatini o'rganish va bolalar bilan sezgi tizimini rivojlantirish bo'yicha individual ish rejalarini ishlab chiqish.

Vazifalari:

- a) sezgi integratsiyasi mashg'ulotlarini ta'lim jarayoniga ishlab chiqish va kiritish;
- b) bolalarning mustaqilligi va turli faoliyat turlarida ijtimoiylashuv darajasini rivojlantirish.

Talimiy eksperiment bosqichlari (Shukrona ta'lim maktabida ASB bo'lgan bolalar bilan o'tkazildi.)

- a) **Birinchi bosqich** bolalarning orientatsion faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan. Ta'limiy eksperiment jarayonida biz bolalarning berilgan vazifalarni bajarishdagi faoliyatini kuzatdik. Kuzatuvlar asosida bolalarning vazifaga munosabati, unga qiziqishi darajasi, o'z natijalarini baholash va faoliyatga bo'lgan munosabati aniqlangan;
- b) **Ikkinchi bosqich** individual ish rejasini ishlab chiqish va bolalarning sezgi tizimini rivojlantirish bo'yicha tanlangan mashqlar majmuasini o'tkazishdan iborat bo'lgan.

Sezgi tizimini rivojlantirish bo'yicha ish tizimi shifokor, defektolog, psixolog, sinf rahbari va ASB bolalarining ota-onalari tavsiyalari hisobga olinib ishlab chiqilgan. Dastur tuzish jarayonida tadqiq etilgan bolalarning imkoniyatlari va ishlatilmagan salohiyati inobatga olingan.

Bolalar bilan ish rejasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) bolaning F.I.Sh.;
- b) dastur tuzilgan sana;
- c) dastur amal qilish muddati;
- d) tavsiya etilgan mashqlar va topshiriqlar;
- e) topshiriqlarning haftalik taqsimoti va yuklama darajasi;
- f) kutilayotgan natijalar;
- g) erishilgan natijalarni baholash muddati.

Yakuniy bosqichda biz ta'limiy eksperiment oldidan va keyin natijalarni solishtirdik hamda ASB bolalarida sezgi integratsiyasini ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdik.

Dasturni amalga oshirishdan avval autizm spektori buzilishi bo'lgan o'quvchilar ikkita kichik guruhga bo'lindi: tajriba va nazorat guruhi, har birida 10 nafar o'quvchilar.

Nazorat kichik guruhidagi o'quvchilar an'anaviy dasturga muvofiq korreksion-rivojlantiruvchi yordamini oldilar. Tajriba guruhidagi o'quvchilar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ish olib borildi. Dasturni amalga oshirgandan so'ng, ikkita kichik guruh o'quvchilari bilan eksperimentning sharxlovchi bosqichida bo'lgani kabi bir xil usullar bo'yicha tadqiqotlar qayta o'tkazildi.

ASB bo'lgan bolalar bilan mashg'ulotlar individual va kichik guruh shaklida o'tkazildi. Qulaylik va maksimal natija olish maqsadida mashg'ulotlar maxsus ajratilgan koreksion sinfda belgilangan vaqtlarda o'tkazildi. Sinf to'g'ri jihozlangan va ushbu guruh bolalar uchun qulay bo'lib, koreksion mashg'ulotlar va ASB bo'lgan bolalar bilan mashqlarni o'tkazishga mos edi. Ba'zi mashqlar va topshiriqlar bevosita dars jarayonida ham qo'llanildi.

Ta'limiy eksperiment davomida ASB bo'lgan bolalar bilan mashg'ulotlar uchun turli mashqlar, topshiriqlar va didaktik o'yinlar sinovdan o'tkazildi. Ish jarayonida quyidagi texnologiyalar qo'llanildi: axborot-kommunikatsion, sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan, o'yinli, shaxsga yo'naltirilgan, tadqiqotchi texnologiyalar. Didaktik material tanlashda quyidagi prinsiplarga e'tibor qaratildi: vizualizatsiya, tushunarlik, mustahkamlik, tizimlilik va ketma-ketlik.

Bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'yinchoqlar, materiallar va rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi. Ish jarayonida bolalarning sezgi rivojlanish darajasi va ularning potentsial imkoniyatlariga tayangan holda mashqlar ishlab chiqildi. Topshiriqlar o'yin shaklida bolalarning sezgi tizimlarini va motorikasini koreksiyalash, yangi va qiziqarli bilimlar o'rgatishga xizmat qildi.

ASB bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan sezgi rivojlanishi bo'yicha suhbatlar o'tkazildi. Suhbatlarning maqsadi — ota-onalarning bolalarning sezgi rivojlanishi haqidagi bilimlarini oshirish edi. Mutaxassislar ota-onalarga didaktik o'yinlar va qiziqarli mashqlarni uy sharoitida tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berdi, bu esa bolalarning sezgi tarbiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'limiy eksperiment jarayonida ish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borildi:

- ASB bo'lgan bolalarda predmetlarning makon va sifat xususiyatlarini tushunish va perseptiv harakatlarni shakllantirish uchun sezgi tarbiyasi mashg'ulotlarini o'tkazish;
- O'yin shaklida bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini rivojlantirish: ular o'zlarini va atrofdagilarni to'g'ri qabul qilishni o'rgandilar;
- Mayda qo'l motorikani rivojlantirish mashg'ulotlari (chizish, plastilin bilan ishlash va boshqalar) o'tkazildi;
- Turli sezgi komponentlarini koreksiyalash mashg'ulotlari (to'p bilan o'yin, plastilin bilan ishlash va boshqa mashqlar) amalga oshirildi.

Sezgi integratsiyasi bo'yicha ish tizimi dars davomida (masalan, jismoniy daqiqalarda), shuningdek, qo'shimcha mashg'ulotlar, koreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, defektolog va logoped bilan mashg'ulotlarni ham o'z ichiga olgan

Ta'limiy tajriba-sinov ishlarining natijalari

ASB buzilishi bo'lgan bolalar bilan olib borilgan ishning barcha sezgi komponentlarini rivojlantirish samaradorligini aniqlash, buning uchun natijalarni sharhlovchi tarjiba sinov oldi va keyin olingan natijalar bilan solishtirish.

Natijalarni baholash uchun biz sharhlovchi tarjiba sinov bosqichida qo'llangan topshiriqlar, metodlar va mashqlarni takroran berganmiz. Natijalar quyidagicha:

ASB buzilishi bo'lgan bolalarining ota-onalari bilan suhbat bolalarning sezgi rivojlanishidagi yaxshilanishdan ota-onalarning mamnuniyati oshganligini ko'rsatdi. Ularning fikricha, bolalar rivojlantiruvchi jarayonda sezilarli yutuqlarga erishgan, ayrim sohalarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan.




Diagramma Eksperiment guruhni korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlaroldi va keyingi sensor tizimlar rivojlanishining taqqoslamasi

Diagramma eksperiment guruhning sensor tizimlarining korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar oldi va keyingi rivojlanishining taqqoslamasi

Mashg'ulotlar natijalari:

ASB buzilishi bo'gan bolalar bilan mashg'ulotlar quyidagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatdi:

1. Harakat koordinatsiyasi yaxshilandi.
2. Umumiy va kichik motorika ishlashi yaxshilandi.
3. Taktik, ko'rish va eshitish stimullariga sezgirlik oshdi.
4. Bolalar o'z tanasini makonda yaxshiroq anglay boshladi.
5. Harakat bezovtaligi kamaydi.
6. Diqqatni jamlash qobiliyati oshdi.
7. O'rganish va muloqot qilish qobiliyati yaxshilandi.
8. Emotsional holat yaxshilandi.

Xulosa

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, autizm spektri buzilishlari bo'lgan bolalar bilan olib borilgan sensor integratsiya mashg'ulotlari ularning umumiy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bolalarning harakat koordinatsiyasi, umumiy va mayda motorikasi, diqqatni jamlash qobiliyati hamda sezgi stimullariga nisbatan moslashuv darajasi yaxshilanganligi aniqlandi.

Shuningdek, ta'lim jarayoniga sensor komponentni tizimli ravishda kiritish bolalarning ijtimoiylashuvi, muloqot qilish ko'nikmalari va emotsional holatini yaxshilashga xizmat qilishi isbotlandi. Tadqiqot davomida individual yondashuv asosida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar dasturi o'zining samaradorligini ko'rsatdi.

Natijalar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: sensor integratsiya mashg'ulotlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ASB bo'lgan bolalarning rivojlanishida muhim korreksion-

rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi. Shu bois, bunday mashg'ulotlarni maktab amaliyotiga keng joriy etish, mutaxassislar va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish hamda individual dasturlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Jean Ayres (2005). *Sensory Integration and the Child*. Los Angeles: Western Psychological Services.
2. Carol Stock Kranowitz (2005). *The Out-of-Sync Child*. New York: Perigee Books.
3. American Psychiatric Association (2013). *Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5)*. Washington, DC.
4. Temple Grandin (2014). *The Autistic Brain*. Boston: Houghton Mifflin Harcourt.
5. World Health Organization (2019). *International Classification of Diseases (ICD-11)*. Geneva.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2020). Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar. Toshkent.
7. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi (2020). "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Toshkent.
8. Lucy Jane Miller (2006). *Sensational Kids*. New York: Putnam.
9. Sally J. Rogers & Geraldine Dawson (2010). *Early Start Denver Model for Young Children with Autism*. New York: Guilford Press.
10. Catherine Maurice (2001). *Behavioral Intervention for Young Children with Autism*. Austin: Pro-Ed